

## QON QUYISH USULLARI VA KO'RSATMALAR

*Xamraqulova Aziza Juraqulovna  
Haydarova Surayyo Turabekovna  
Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi  
jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya :** Qon quyish vena tomirlari orqali (o'tkir holatlarda arteriyalar orqali) amalga oshiriladi va qizil qon tanachalari, oq qon hujayralari, plazma oqsillari o'rnini bosish, shuningdek qon aylanishini, qon yo'qotish holatida uning osmotik bosimini tiklash uchun (shu maqsadda qon o'rnini bosuvchi moddalar ishlatilishi ham mumkin) qo'llaniladi.

**Kalit so'zlar:** Qon guruhi; Rezus omil

## BLOOD TRANSFUSION METHODS AND INSTRUCTIONS

**Abstract:** Blood transfusion is carried out through veins (in acute cases through arteries) and to replace red blood cells, white blood cells, plasma proteins, as well as to restore blood circulation and its osmotic pressure in case of blood loss (for this purpose blood substitutes may also be used) are used.

Qon quyish amaliyoti kasalliklar, jarrohlik operatsiyasi, kimyoterapiya yoki terapiyaning boshqa turlari qonga o'tkazishi tufayli kerak bo'lishi mumkin. Bunda bemorga eritrosit, leykosit yoki trombositlar talab etilishi mumkin, xususan:

- Eritrosit yoxud qizil qon tanachalari kuchli qon yo'qotish yoki kamqonlikda;
- Trombositlar ularning miqdori kamligida (trombositopeniyada);
- Leykosit yoxud oq qon tanachalari juda kamdan-kam hollarda uchraydigan ko'rsatmalarga ko'ra.

Transfuziya to'g'ridan-to'g'ri va donor qonini oldindan saqlab qo'yish orqali amalga oshirilishi mumkin. Qon quyish uchun zamonaviy yondashuv uning tarkibiy qismlarni quyishni nazarda tutadi (plazma, qizil qon tanachalari massasi, oq qon hujayralari massasi, trombositlar massasi, yuvilgan eritrositlar, kriopretsipitat va boshqa nodir komponentlar).

Tekshirilmagan qonni quyish paytida qabul qiluvchi qoniga donorda mavjud bo'lgan kasallik qo'zg'atuvchilari tushishi mumkin. Shu munosabat bilan, hozirda qon tarkibiy qismlarini karantin qilish usuli keng qo'llaniladi. **Qon donorlari va qabul qiluvchining qonlari quyidagi parametrlar bo'yicha qat'iy mos kelishi kerak omillar bu qonning guruhi va resus omilidir.** Qon quyish og'riqli emas. Sezish mumkin bo'lgan yagona og'riq — venaga ignani kiritish vaqitda seziladigan yengil achish hissi. Bir marta qizil qon hujayralari quyish amaliyoti 2-4 soat, trombositlar quyish esa 30-60 daqiqa vaqt talab qiladi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf

— allergic reaksiya yoki infeksiyadir, biroq bunday ehtimollik juda past ko'rsatkichga ega.

Qon quyish usullari : To'g'ridan to'g'ri qon quyish qon donor venasidan retsiient venasiga bevosita quyiladi. Bilvosita qon qo'yish - donor qoni vval maxsus idishlarga yig'iladi, sterealizatsiya qilinadi, konservaladi va keyinchalik zarur bo'lganda qo'yiladi.

Qon qo'yishning qo'yidagi usullari mavjud:

- Venaga qon qo'yish – ko'p yo'qotilganda qon oqim qilib yoki bemorning xolati imkon berganda va ko'p miqdorda qon quyish talab etilganda tomchilatib (1 daqiqada 20- 30 tomchidan ) qiy-di.

- Arteriyaga qon quyish – klinik o'lim xolatidagi yoki shunga yaqin holatdagi bemorlarga qon bosim ostida quyiladi.

- suyak ichiga qon quyish - qon suyakning g'ovak moddasiga kiradi.

- almashtirib qon quyish - qon olib, urniga donor qonini kuyish - gemolitik zaharlanganda, ovqatdan zaharlanishda qo'llaniladi.- qayta qon qo'yish- bemorning seroz bo'shlikka oqib tushgan uz qonini quyish (Qon yig'ilib natriy sitrat shimdirilgan 4 qavat dokadan filtrlab u'tkaziladi.

- murda qonini quyish- murda qoni icvimaydi, shuning uchun uni stabilizatorsiz ko'p miqdorda ulgan kishilarning jasadidan olib tayorlanadi)

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qon va qon tarkibiy qismlarini quyish (Toshkent-2015) Y.N.Fayziyev